

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

**Isayeva Nargiza Xamidovna
USAT "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsent v.v.b**

Investitsiyalar - iqtisodiy rivojlanishning kuchi va davlatni yuqori samarali omonatlar bilan ta'minlashning asosiy vositasi bo'lgan sohasidir. O'zbekiston ham bu muhim sohani kengaytirish va rivojlantirish uchun keng ishlarni olib bormoqda. Investitsion faoliyat tushunchasi, bu mamlakatda investitsiyalar va biznes faoliyatini rivojlantirish bo'yicha asosiy qonun-huquqi tushunchalardan biri bo'lib, uning o'zini o'rganish va tushunish muhimdir.

Investitsiya tushunchasi, asosan kapitalni omonat qilish, omonatning tezroq vaqt ichida pul mablag'larini olib borish bilan bog'liqdir. Bu davlat va kompaniyalar uchun kichik omonatlardan milliy iqtisodiy loyihalarni boshqarish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish yoki yangi ish o'rirlari yaratishda ishlataladi. Investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy o'sishini yanada kuchaytirishi va yangi ish o'rirlarini yaratish uchun zarurdir.[1]

O'zbekiston o'z iqtisodiy rivojlanishini investitsion faoliyatni oshirib borish hisobidan yaratayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, buning natijasida O'zbekistonning iqtisodiy potentsiali va infrastruktura rivojlanmoqda. Mamlakat investitsiyalarni jalb qilish, investitsion muhitni yanada yaxshi o'rganish va tushunish, investitsion tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va yangi investitsiya turlarini olib borish bo'yicha xavfsiz, oson va samarali shartlar yaratishga intiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va iqtisodiyotga yanada ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, qonunchilikda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi "Soliq kodeksi", "Investitsiya va investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonun, "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Qonunchilikdagi o'zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston 2019-yilda ilk bora Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklavlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko'ra, 2020-yilda jahonda 43-o'rinni, Osiyo mintaqasida 7-o'rinni qayd etdi.

2017-2022 yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimizga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich 1,5 barobar ortib, 3,3 milliard AQSh dollariga yetdi.[4]

O'zbekistonning bu sohada olib borayotgan ishlari, moliyaviy omonatlar va investitsiya huquqiy asoslarining yanada rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa,

mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy yaxshi ko'rsatgichlarini oshiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi, hamda "investitsiya krediti", "investitsiya subsidiyasi" va "investitsion viza" kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi.

Boshqa har qanday faoliyat kabi investitsiya faoliyati ham muayyan maqsad, vosita va natijani o'z ichiga oladi. Investitsion faoliyatning maqsadi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasiga erishish bo'lsa, uning vositalari bo'lib investitsiya, investitsion salohiyat hamda investitsiya jarayonlari hisoblanadi. Investitsion qo'yilmalardan daromad olish, mavjud kapitalni hamda investitsion resurslarni ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish shartsharoitlarini yaratish investitsion faoliyatning natijasi sifatida baholanadi. Shuningdek, investitsiya faoliyati: 1) mustaqil faoliyat; 2) mol-mulk hamda mulkiy huquqlarni investitsiya qilish; 3) tavakkalchilikka muvofiq; 4) foyda olish yoki boshqa ijobjiy samaraga erishishga yo'naltirilgan; 5) muayyan huquqiy shaklda amalga oshiriladigan; 6) investitsiya vositalaridan maqsadli foydalanishni ifodalovchi; 7) bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi kabi o'ziga xos belgilari bilan boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi.[2]

Investitsiya vositachilar, tijorat banklari, fondlar va boshqa moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladigan investitsiyalash portfel investitsiyalar hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiyotda investitsiyalashning muayyan qismini portfel investitsiyalar tashkil etadi. Boisi barcha investorlar ham investitsiyalashni qanday amalga oshirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmaydilar va bu investitsiya hamda moliyaviy vositachilar yordamidan foydalanishni taqozo qiladi. Portfel investitsiyalarning to'g'ri investitsiyalardan farqi shundaki, ularni sotish va boshqa usullarda qaytarib olish osondir, shiningdek mazkur investitsiyalar nisbatan qisqa muddatlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy investitsiyalar esa inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Kapital investitsiyalar asosan, moddiy ishlab chiqarishga, asosiy fondlarni vujudga keltirish va qayta yaratishga hamda moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni nazarda tutadi. Moliyaviy investitsiyalar bugunga kunda keng ommalashgan investitsiya turi hisoblanib, mazkur turdag'i investitsiya faoliyati asosan, qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi. Bunda moliyaviy investitsiyalar daromad olish hamda asosiy kapitalni ko'paytirish maqsadida investor tasarrufidagi vositalarni aksiya, obligatsiya, veksel, zayom va boshqa qimmatli qog'ozlarga, bir so'z bilan aytganda, moliyaviy aktivlarga joylashtirishni anglatadi. Moliyaviy investitsiyalar spekulativ xususiyatga ega bo'lган yoki kapitalni uzoq muddatga qo'yishga qaratilgan bo'ladi. Yuqorida keltirilgan investitsiyalar orasida ijtimoiy investitsiyalari o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Boisi ijtimoiy investitsiyalar insonning bilimi, ko'nikmasi va iqtidorini oshirishga, yuksak salohiyatga ega kadrlarni yetishtirishga, yangi innovatsion ishlab chiqarish tajribalarini, ilmiy-tadqiqot va

loyiha-konstrukturlik ishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.[3]

Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index - Investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeks hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko'rsatadi. IPI indeksi uchun me'yordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalg qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilganini anglatadi.

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida Respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 226,6 trln. so'mga yetgan. Bu o'tgan yilning mos davridagiga qaraganda 11,8 foiz ko'p. Bu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 16,3 foiz o'sgan va 91,8 trln. so'mga teng bo'lgan.

Shunga qaramasdan, hududlar miqyosida investitsiyalarning taqsimlanishida tafovutlar kuzatilmoqda. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha Xorazm viloyati va respublika miqyosidagi o'rtacha qiymatlar orasidagi farq joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida qariyb 2,7 baravarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha esa 2,5 baravarni tashkil etdi.

IPI indeksiga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha Sirdaryo (2,00) va Buxoro (1,67) viloyatlarida indeks qiymati me'yordagidan ancha yuqori bo'lgan. Bunga investorlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi hamda strategik ahamiyatga ega mega loyihalarning vaqtinchalik ta'sirini sabab sifatida keltirish mumkin. Qashqadaryo (1,00) va Farg'ona (1,00) viloyatlarida me'yordagi ko'rsatkich, aksariyat viloyatlarda esa unga yaqin qiymatlar qayd etilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Farg'ona (0,96) va Xorazm (0,95) viloyatlarida IPI indeksi me'yordagiga yaqin ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Sirdaryo (3,93), Buxoro (1,78), Jizzax(1,64) va Toshkent(1,52) viloyatlarida me'yordagidan yuqori bo'ldi. Bu esa mazkur viloyatlarga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yuqori bo'lsada, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Toshkent shahri (0,67) va Xorazm viloyati (0,68) da indeks 1 dan ancha past bo'ldi. Bu esa ushbu hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Takidlash kerakki, IPI indeksi hududlar miqyosida investitsiyalarning miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan bo'lib, ularning sifat ko'rsatkichlarini anglatmaydi. [4]

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ендовицкий Д.А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика / Д.А. Ендовицкий; подред. Л.Т. Гиляровской. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.
2. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К°, 2006. С. 372.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. Т.: «Moliya». 303 b.
4. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari.